

Samarqand viloyatida kimyo sanoati tadbirkorlari bilan amaliy muloqot o'tkazildi

// 14.07.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/samarqand-viloyatida-kimyo-sanoati-tadbirkorlari-bilan-amali>



“O'zkimyosanoat” AJ rahbariyatining hududlarda biznes vakillari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotlari davom etmoqda. Uchrashuvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o'tkaziladigan VI ochiq muloqotiga tayyorgarlik doirasida tashil etilmoqda.



Navbatdagi amaliy uchrashuv Samarqand viloyatida kimyo sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari va korxona rahbarlari ishtirokida tashkil etildi. Muloqotning asosiy maqsadi soha vakillarini qiynayotgan masalalarni o'rganish, ularning taklif va tashabbuslarini eshitish hamda mavjud muammolarga amaliy yechimlar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.



Tadbirida Samarqand viloyati hokimining o'rinbosari — viloyat investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig'i, Savdo-sanoat palatasi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi rahbariyati ham ishtirok etdi.



Uchrashuv davomida kimyo sanoatida investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish faoliyatini yanada rivojlantirish, xomashyo ta'minoti, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda tadbirkorlik faoliyatida uchrayotgan mavjud muammolar yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, tadbirkorlar tomonidan bildirilgan taklif va murojaatlar yuzasidan mas'ul tashkilotlar ishtirokida atroflicha muhokama o'tkazilib, ularni hal etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.



Mazkur muloqotga kimyo sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan jami 68 nafar tadbirkor jalb qilindi.

Bunday uchrashuvlar tadbirkorlar bilan ochiq muloqotni ta'minlash, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan takliflarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

